FARG‘ONA VILOYATI OLTIARIQ TUMAN HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 21 - iyun 100-11-151-Q/23 Oltiariq tuman hokimligi

Umumfoydalanishdagi avtomobil yo‘llariga yo‘l belgisi o‘rnatishga ruxsat berish haqida

Tuman hududidagi avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transport hodisalari va huquqbuzurliklarni oldini olish maqsadida “tuman markazidan o‘tgan 4R-147 “Marg‘ilon-Rishton-O‘qchi” avtomobil yo‘lining 22-23- kilometrlari oralig‘iga o‘rnatilgan 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini amal qilish oralig‘ini belgilangan masofaga o‘zgartirishga ruxsat berish to‘g‘risida” Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining aloqa xati, Vazirlar Mahkamasining 12.04.2022-yildagi 172-son qarori va taqdim etilgan hujjatlar bilan tanishib chiqib, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16,21,24-moddalarini qo‘llab,

QAROR QILAMAN

1. Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi boshlig‘ining tuman hokimi nomiga tumani markazidan o‘tgan 4R-147 “Marg‘ilon-Rishton-O‘qchi” avtomobil yo‘lining 22-23- kilometrlari oralig‘iga o‘rnatilgan 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini amal qilish oralig‘ini belgilangan masofaga o‘zgartirishga ruxsat berish to‘g‘risidagi aloqa xati va taqdim etilgan hujjatlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oltiariq tumani markazidan o‘tgan 4R-147 “Marg‘ilon-Rishton-O‘qchi” avtomobil yo‘lining 22-23- kilometrlari oralig‘iga o‘rnatilgan 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini amal qilish oralig‘ini belgilangan masofaga

o‘zgartirishga ruxsat berilsin.

3. Oltiariq tuman Yo‘llardan foydalanish UK rahbari (N.Yo‘ldashev)ga 3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Oltiariq tumani IIB YHXG ga;

3.27 “To‘xtash taqiqlanadi” yo‘l belgisi o‘rnatilgan hududda harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish maqsadida transport vositalari harakatida yo‘l harakati qoidalariga to‘la rioya qilinishini muntazam nazoratga olib borish vazifasi yuklatilsin.

5. Mazkur qarorni bajarlishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Oripov zimmasiga yuklatilsin.

Oltiariq tumani hokimi **Sh.Turdaliyev**